Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2022, No 1 (42),146-168
https://journal.fledu.uz
ISSN: 2181-8215 (online)

XRONOTOP SHAKLLARI OLAM TASVIRINI QAYTA YARATISH VOSITASI SIFATIDA

Bahor Bahriddinovna TO'RAEVA
Dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston

ФОРМЫ ХРОНОТОПА КАК ВОССОЗДАНИЕ КАРТИНЫ МИРА

Бахор Бахриддиновна ТУРАЕВА
Доцент, доктор философии по филологическим наукам
Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент, Узбекистан

CHRONOTOP FORMS AS A TOOL FOR RECREATING THE PICTURE OF THE WORLD

Bahor Bahriddinovna TURAEVA
Doctor of philosophy (PhD) on philological sciences, an Associate professor
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan bahorturaeva@gmail.com

UDC (UO'K, УДК): 82.09
For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): To'raeva B.B. Xronotop shakllari olam tasvirini qayta yaratish vositasi sifatida // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 1 (42). — B. 146-168.

https://doi.org/10.36078/1649688242

Received: December 17 , 2021
Accepted: February 17, 2022
Published: February 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

Open Access

Annotatsiya. Maqolada adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan biri xronotop shakllarining badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilingan. Jahon adabiyotshunosligida xronotop kategoriyasining adabiy-estetik mohiyati va nazariy tamoyillari, tur va janrlar evolyutsiyasi, modifikatsiyasi, badiiy asar arxitektonikasiga ta'siri, badiiy matn semiotikasi, bir adabiy matn yoki bir qator matnlar doirasidagi zamon-makon shakllarining o'zaro to'qnashuvi, parallelligiga doir ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotshunosligida azaldan mavjud ilmiy an'analar bilan bir qatorda dunyo adabiyotshunosligidagi yangicha uslub va yondashuvlarni ijodiy o'zlashtirish va tadqiqotlarda qo'llash tendentsiyasi shakllandi. Binobarin, badiiy adabiyotda dunyoni obrazli badiiy qayta gavdalantirishning G'arbda taraqqiy topgan tamoyillarini sharqona adabiy an'analar bilan uyg'unlashtirish kuzatilmoqda. Xronotop olam va odam munosabatlarini tasvirlashda, qahramon qalbidagi kechinma, iztirob, uning o'zigagina tegishli ruhiyat manzaralarining eng chuqur o'zanlarini to'liq his qilishda, yozuvchining badiiy-g'oyaviy maqsadini ifodalashda hamda asarning mazmun va shaklini ochishda xizmat qiladi. U ijodkor uslubining o'ziga xos jihatlarini belgilab, milliy fikrlash tarzini aks ettiradi. Xronotop janr va syujetni tashkil etib, asarning ichki izchilligini mustahkamlaydi. Zamon va makon kategoriyasi umumlashtiruvchi vazifa bajaradi.
Kalit so'zlar: xronotop, badiiy zamon, badiiy makon, real, ijtimoi psixologik, milliy, fantastik xronotop.

Аннотация. В статье анализируются художественно-эстетические особенности форм хронотопа, одна из актуальных проблем литературоведения. Следующие приоритеты в области категории хронотопа в мировой литературе: литературно-эстетическая сущность и

теоретические принципы, эволюция, модификация видов и жанров, влияние на архитектуру художественного произведения, семиотика художественного текста, коллизия пространственно-временных форм внутри художественного текста или серии текстов, которые реализуются. В годы независимости наряду с сложившимися научными традициями в узбекской литературе наметилась тенденция к творческому освоению и применению в исследованиях новых методов и подходов мировой литературы. Поэтому в художественной литературе происходит гармонизация принципов образно-художественного воссоздания мира, выработанных на Западе, с литературными традициями Востока. Хронотоп служит для описания взаимоотношений мира и человека, полного переживания глубины душевных переживаний героя, выражения художественно-мировоззренческого замысла писателя, раскрытия содержания и формы произведения. Он подчеркивает отличительные черты творческого стиля и отражает национальный образ мышления. Хронотоп усиливает внутреннюю целостность произведения, формируя жанр и сюжет. Категория времени и пространства выполняет обобщающую функцию.

Ключевые слова: хронотоп, художественное время, художественное пространство, реальный, социальный, психологический, национальный, фантастический хронотоп.

Annotation. The article analyzes the literary and aesthetic features of chronotope forms, one of the current problems of literary criticism. The following priorities in the field of the chronotope category in world literature: literary and aesthetic essence and theoretical principles, evolution, modification of types and genres, influence on the architecture of a work of art, semiotics of a literary text, collision of spatio-temporal forms within a literary text or a series of texts that are implemented. In the years of independence, along with the existing scientific traditions in Uzbek literature, there has been a tendency to creatively master and apply new methods and approaches of world literature in research. Therefore, in fiction there is a harmonization of the principles of figurative and artistic recreation of the world, developed in the West, with the literary traditions of the East. The chronotope serves to describe the relationship between the world and man, fully experience the depths of the hero's emotional experiences, express the writer's artistic and ideological purpose, and reveal the content and form of the work. It highlights the distinctive features of the creative style and reflects the national way of thinking. The chronotope reinforces the internal consistency of the work, forming a genre and a plot. The category of time and space does a generalizing function.

Keywords: chronotope, literary time, literary space, real, social, psychological, national, fantastic chronotope.

Kirish. ‘‘XX asr oxiri XXI asr boshlarida adabiyotshunoslikda xronotop adabiy-estetik hodisasiga nazariy, amaliy va umumiy yondashuv paydo bo‘ldi:

1. Nazariy yondashuvda zamon va makon kategoriyasi mohiyatini tushunish, uning ahamiyati, roli, badiiy asardagi vazifalarining o‘ziga xos jihatlari tadqiq etiladi.

2. Amaliy yondashuvda xronotop nazariyasi alohida yozuvchi ijodi misolida o‘rganiladi.

3. Umumiy yondashuvda zamon va makon asarning barcha

komponentlari, badiiyat mezon va maromlari bilan uzviylikda tahlil qilinadi'' (9, 10).

Tadqiqotda tanlangan ob'ektlar tahlilida uchinchi yondashuvga tayanildi.

Asosiy qism. Real xronotop. Tahlilimizdagi romanlarda real xronotop asar voqealarining hayotiyligi va ishonarliligini ta'minlash bilan birga voqealar silsilasining mantiqiy ketma-ketligini ham ifodalaydi. Ch.Aytmatov va N.Norqobilov romanlarida voqealar xronologik tarzda ro'y bermaydi. Voqealar kuchli va keskin dramatizm zaminiga qurilgan bo'lib, tasvirda ichki xarakat izchilligi ustuvorlik kasb etadi. Konsentrik va assotsiativ syujet tipiga xos xususiyatlar uzviylashadi, natijada retrospeksiya va prospeksiya usullari orqali syujet chiziqlari turli (parallel, o'tmishga murojaat, kelajakka yo'nalganlik) holatlarida harakatlanadi. Bu holatda real xronotop asarda bir tekis ifodalanmaydi. ''Asrga tatigulik kun'', ''Qiyomat'', ''Qoraquyun'' romanlarida voqealar tizimi qahramonlarning xotiralari, o'y-xayollaridan iborat. Asarlarda qisqa muddatli badiiy zamon berilsa-da, Edigey Bo'ron, Avdiy va Ermanning xotiralari asar zamon va makon ko'lamini kengaytirgan. ''Qulayotgan tog'lar'' va ''Dashtu dalalarda'' romanlarida sodir bo'layotgan voqealarga nisbatan qahramonlarning o'tkir mushohadasi namoyon bo'ladi. Yozuvchilar qahramonlari – Arsen Samanchin va Eshqul polvon nigohi orqali voqealarga munosabat bildirishadi, tahlil qilishadi. ''Kassandra tamg'asi'' romanida qahramon o'tmishidagi voqealar kelajakda ro'y berajak halokatlar bilan asarning hozirgi zamonida tutashadi. Bolalar uyiga tashlab ketilgan aslida o'zi ham ikszurriyot, tabiiy holda tug'ilgan bo'lsa ham, nasl-nasabsiz, urug'-aymoqsiz Andrey Krilsov ikszurriyotlarni yaratadi. ''Men Yerga tushsam-u bizning laboratoriyamizda o'tkazilgan tajribalar natijasida dunyoga kelgan go'daklarning ko'zlariga bir boqsam!... Nega endi bu haqda yozyapman. Chunki biz qilgan xatoni tuzatib bo'lmaydi. Davlat mulki bo'lib tug'ilgan odamlar nima bo'ladi oxiri?''(III, 344). Asar bosh qahramoni o'z ilmiy ixtirolari insoniyat boshiga qanchalar kulfat solishini o'ylab, bu o'ylar vahmidan unga hatto koinot ham torlik qiladi: ''Vaqti-soati kelib, ikszurriyotlarda insoniyatdan o'ch olish, to'ng'iz qo'pqir dunyosiga o't qo'yishdek qat'iy istak paydo bo'lmasmikan?'' (III, 344).

Tahlilimizdagi romanlarda qisqa muddatli voqealar (''Asrga tatigulik kun'' romanida bir kun, ''Qiyomat'' romanining birinchi va ikkinchi qismida bir sutka (Birinchi qism ikkinchi faslida Mo'yinqumda sayg'oq ovlovchilar Ober Kandalov to'dasi tomonidan oyoq-qo'li bog'langan, mashinada achchiq va alamli xotiralar daryosiga g'arq bo'lgan Avdiyni ikkinchi qism beshinchi faslida saksovul shoxlariga osishadi), uchinchi qismida bir necha kun (uchinchi qism birinchi faslida Bozorboy Boshat daradan bo'ri bolalarini olib ketishi va oltinchi qismida Akbara Kenjashni olib qochishi hamda Bo'ston otgan o'q tufayli Akbara va Kenjash o'limga yuz tutishi) voqealari tasvirlangan. ''Qulayotgan tog'lar'' romanida voqealar yoz oylarida, ''Kassandra tamg'asi''dagi voqealar esa qish faslida ro'y beradi. Har ikkala romanda voqealar uzoq vaqtni qamramaydi, ya'ni ''Qulayotgan tog'lar'' Oydana tashlab ketgandan so'ng Arsen Samanchinning iztiroblari, arab neft magnatlari – Xasan va Misir tomonidan qor qoplonini ovlash rejasiga amakisi Bektur og'aga ko'maklashishi hamda Eles bilan topishishi; ''Kassandra tamg'asi'' esa samoviy rohib – Filofeyning rim papasiga yo'llagan maktubi ''Tribyun'' gazetasida nashr qilinishi, futurolog Robert Bork Filofeyning kashfiyotini yoqlagani uchun olomon tomonidan vahshiylarcha o'ldirilishi, Andrey Krilsov – Filofey Entoni Yungerga tavba-tazarru matnini jo'natishi kabi syujet chiziqlaridan iborat.

''Dashtu dalalarda'' romani 222 betdan iborat bo'lib, yozuvchi asarni qism va fasllarga ajratmagan. Asarning qismlarini yigirma o'rinda yulduzchalar

bilan ajratadi. Asar voqealari ‘‘To‘lanboy podani kungay betga yoyib, o‘zi tund va hafsalasiz bir qiyofada, oshiqmay, quyoshga ters tepapikka ko‘tarilarkan, to‘satdan nigohi yonbag‘irlikda, qurigan siyrak tikanaklar orasida jontalvasada talpinib, o‘zini har yon urayotgan kattakon mallarang tulki – Qoraquloqqa tushib, beixtiyor to‘xtashidan boshlanadi’’ (IV, 3). Dashtda yolg‘iz qolgan To‘lanboyning iztiroblari sababi 28-betda oshkor bo‘ladi. N.Norqobilovning mahorati shundaki, voqealar ibtidosida tuzoqqa tushgan tulki *yulduzchalar bilan ajratilgan* o‘ninchi qismda tutqunlikdan To‘lanboy tufayli ozodlikka erishadi: ‘‘Orada tobora uzoqlashib borayotgan Qoraquloqqa shunchaki bir qarab qo‘yarkan, beixtiyor unga havasi keldi. Negaki, ozod bo‘lgan jonivor iniga, jigarlari oldiga oshiqmoqda edi’’ (IV, 117).

Asar voqealari Eshqul polvonning sihatgohda davolanish muddati oralig‘ida kechadi. Yozuvchi otasining dashtga qaytib, To‘lanboyning qilmishi uchun jazolashini asarning turli o‘rinlarida bot-bot takrorlaydi: ‘‘Eshqul polvon qishloqqa qaytishi bilan hammasi o‘z-o‘zidan qayta joyiga tushadi. ‘‘Kishi haqi...’’ masalasida otasi o‘ta beshafqat, hech kimni ayab-sayab o‘tirmaydi’’ (IV, 48). Ulash qora va To‘lanboy dialogida ham shunga ishora qilinadi: ‘‘Otang kelsa, sen dashtda tirik yurarmiding! ...Otang kelsin, nima ish qilib qo‘yganingni o‘shanda bilib olasan!’’ (IV, 114). Tog‘asi Haydarning tuhmati tufayli To‘lanboyning ayoli Oygulning arazlab ketib qolishi bilan boshlangan voqealar Eshqul polvon ayoli Oybarchin va kelini Oygulni olib, dashtga ko‘chib kelishi hamda Haydarning dasht jondorlari tomonidan mahv etilishi bilan yakun topadi. Eshqul polvonning xotiralari zamon va makon chegaralarini kengaytirgan, shuningdek, asar voqealariga nisbatan aynan shu qahramonning falsafiy mushohadalari sezilib turadi.

‘‘Qoraquyun’’ romanida voqealar Ermanning Itolmasdan o‘ch olish maqsadida g‘ulda it boqishi tasviridan boshlanib, g‘ul iti tomonidan Ermanning halokatga yuz tutishi bilan nihoyalanadi. Yozuvchining mahoratiga tan berish kerakki, asarning boshidanoq yakuni qanday bo‘lishini ziyrak kitobxon anglaydi. ‘‘Hademay bu nomsiz maxluq o‘tov chiylarini sitib, sochqilab, uviq va keragalarni xasdek yanchib, burdalab ichkariga suqilib kiradigan, so‘ng esa minglab sertuk oyoqlari bilan jismi-jonini iskanjaga olib, tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada beo‘xshov, ayri jag‘ini lang ochganicha, yamlamay komiga tortadigandek...’’ g‘ul itining vahmini, ‘‘qo‘rquv og‘ushida sakrab turib ketgan’’ (V, 7) Ermanning holatini ko‘z oldiga keltiradi. Asar Ermanning xotiralari asosida qurilgan, ya’ni Itolmasning yigitlari tomonidan bandi etilishi, qullik va xo‘rlikda kechgan kunlari, yigitning Oybekachga nisbatan iliq tuyg‘ulari, uning erkka chorlovi, tutqunlikdan aynan shu ayol tufayli ozod bo‘lishi retrospeksiya usuli orqali ifodalangan.

Ch.Aytmatov va N.Norqobilov romanlarida real xronotop yozuvchilar tasavvuridagi badiiy olamda sochilib yotgan voqealarni, turli zamonu makonlarni tizimlashtirishga xizmat qiladi. Har ikki adib uslubiga xos xususiyat shundaki, romanlarida tasvirlangan voqealar juda qisqa muddatlarda ro‘y bersa-da, ammo qahramonlarning xotiralari, o‘y-mushohadalari xronotop sarhadlarini kengaytirgan.

1-jadval.

Zamonaviy romanlar ekspozitsiyasi va yechimida real xronotop ifodasi

‘‘Asrga tatigulik kun’’	Qaqrab ketgan **jarliklaru** suvi qurigan **soyliklarda** rizq ilinjida xo‘rak izlab chiqqan tulkining joniga to‘zim bersin (I, 10).	**Temir yo‘lning ikkala tomonida** yovshanzor bilan qoplangan hayhotdek **dashtlik – Sario‘zak, o‘rtacho‘l** yastanib yotadi (I, 282).

	Qishning qisqa kuni norasta nafasiday birpasgina ilib turdi-yu, tog‘larning kungay betlarida ko‘p o‘tmay havoning avzoyi buzildi, muzliklardan sovuq shamol izg‘idi, dara-o‘ngirlarga erta tushgan **xufton** qorong‘iligi shitob bilan yoyildi, qor-quyunli **kecha**ning izg‘irin sovug‘i turdi (I, 285).	**Issiqko‘lning moviy oshiyonasi** dam sayin yaqinlardi, xuddi mana shu dam g‘oyib bo‘lib, dam yana o‘z bag‘ridan o‘zi qayta yaralib, do‘ngalaklanib chopayotgan to‘lqinlar kabi **ko‘l bag‘rida** badar yo‘q bo‘lib ketsam derdi, aslo yashab-yashagisi kelmasdi... (I, 547).
‘‘Qulayotgan tog‘lar’’	Hammaga va **har qaysi davr**ga tegishli o‘zgarmas bir haqiqat mavjud. Qismati nimaligini, peshonasiga nima bitilganini oldindan bilishga hech kimni ng ixtiyori yo‘q, – kimga nima yozilganini faqat hayotning o‘zi ko‘rsatadi, yo‘q esa qismatning qismatligi qolarmi... (II, 6).	Qulog‘imga ‘‘Mangu qayliq’’ chorlagan nido eshitilyapti. U haqda menga Arsen Samanchin **ko‘p bora** hikoya qilgandi! Uning nidosiga jo‘r bo‘lgim keladi... (II, 253).
‘‘Kassandra tamg‘asi’’	**Bu gal** ham dastlab So‘zdan boshlandi. **Bir zamonlarda** bo‘lgani kabi. O‘sha mangu Mavzudagi kabi (III, 13).	Nahotki, u **kosmos**da ham o‘zini oxirgi marta ko‘kragiga bosib ko‘tarib borayotgan onasi yuragining dukillab urayotganini eshitayotgan bo‘lsa?.. (III, 346).
‘‘Dashtu dalalarda’’	To‘lanboy podani **kungay bet**ga yoyib, o‘zi tund va hafsalasiz bir qiyofada, oshiqmay, **quyoshga ters tepapik**ka ko‘tarilarkan, to‘satdan nigohi **yonbag‘irlikda, qurigan siyrak tikanaklar orasi**da jontalvasada talpinib, o‘zini **har yon** urayotgan kattakon mallarang tulki – Qoraquloqqa tushib, beixtiyor to‘xtadi (IV, 3).	Biroq **yuragi adoqsiz qayg‘uga to‘lib-toshgan** To‘lanboy bu **kenglik**ka sig‘may borardi. – Tog‘am-a, **kun ko‘rmay ketgan** tog‘am-a!!! (IV, 222).
‘‘Qoraquyun’’	G‘uldagi it – Qoraquyun **yarim tunga yaqin** tin olmay, uzluksiz bir alfozda g‘azabkor irillay boshladi (V, 7).	**Bu paytda qibla** shamoli qo‘zg‘algan bo‘lib, nixoyat ozodlikka erishgan Qoraquyun shuvoq bo‘yiga betlangancha, **olis-olisdagi kenglik sari** yeldek uchib borardi (V, 216).
‘‘Ikki eshik orasi’’	**Payshanba** – **maosh kuni** edi. **Peshindan keyin** atrofi taxta devor bilan omonat o‘ralgan **qurilish**	...Avtobusdan tushishga oyog‘im tortmas, **Toshkent**ga, o‘z jamoamga qaytgim, Ikrom akaning ‘‘tudavoy-sudavoy’’

	hovlisiga chang-to‘zon ko‘tarib ‘‘ZIL’’ mashinasi kirib keldi (VIII, 4).	deb shang‘illab gapirishini eshitgim kelardi (VIII, 746).
‘‘Boqiy darbadar’’	... Jaziraning top-toza **moviy osmoni**da bir parcha oq bulut suzmokda edi (VI, 7).	Bu odamni **keyingi asrlarda** yanada ko‘proq eslaydilar. Uni goh darbadarlikka mahkum insonlarning, goho esa taqdirlarning va xalqlarning timsoli sifatida tilga oladilar. Va unga ***‘‘Boqiy** darbadar’’* deb nom beradilar (VI, 92).
‘‘Isyon va itoat’’	**Olam uzra** zulmat hukmron edi **u paytlar**. Na qittay yorug‘lik bor edi va na jinday harakat (VII, 3).	– Akbar Iskandarni xuddi vidolashayotganday bag‘riga mahkam bosgancha, qulog‘iga shivirladi, – ulgurmog‘ing kerak, bolam!... (VII, 139).

Ijtimoiy xronotop. ‘‘Asrga tatigulik kun’’, ‘‘Dashtu dalalarda’’ romanlarida sobiq sho‘ro davridagi mafkuraviy qatag‘onning fojialari; milliy qadriyatlar va inson qadr-qimmatining toptalishi, mustabid tuzumning insoniyat tarixida misli ko‘rilmagan qatag‘on siyosati va qabihliklari badiiy aks ettirilgan.

Sario‘zak cho‘lining ko‘z ilg‘amas kengliklarida aynan Nayman ona qabristonining kosmodromga aylantirilishi, mayitni qabristonga qo‘yish uchun boshliqlardan ruxsat olish umidida Edigey va Edilboylar sa’y-harakatlarining besamar ketishi, ajdodlar xotirasi hisoblangan qabristonni saqlab qolish uchun Edigey Bo‘ronning urinishlari; otasi quloq qilingan Kazangap singarilarning sarson-sargardon taqdiri, ‘‘do‘ppi o‘rniga bosh oladigan odamlar’’ (I, 66)ning insonlar hayoti ustidan xohlagancha hukm o‘qishlari; nemislar qo‘lida asirlikda bo‘lgani uchun Abutolib Quttiboevni xalq dushmani sifatida ayblab, chag‘irko‘z Tansiqboev tomonidan tergov qilinishi, ammo tergov qiynoqlariga dosh berolmay, ‘‘turmush ma’nosini bir-birlariga mehribonlik qilishda, ardoqlashda, totuvlikda va g‘amxo‘rlikda’’ (I, 94) deb bilgan rafiqasi Zarifasiz va farzandlarisiz, ularga zoru mushtoq holda olamdan ko‘z yumishi asar ijtimoiy xronotopini tashkil etadi. Abutolib va Zarifa sevgi va sadoqat tuyg‘usi bilan yashab, ‘‘shu tuyg‘u tufayli bir-birlarini va farzandlarini hayot quyunlaridan himoya qilib, jon saqlab’’ (I, 94) kelishgan edi, ammo Abutolib Quttiboevning nemislarga asir tushganini ro‘kach qilib, xoinlikda ayblanishi hayotini izdan chiqardi. Qamoqqa olingach, tiriklik umidini berib turgan yolg‘iz ilinji oilasisiz yashashga madori yetmadi. Urushga qadar geografiya muallimi bo‘lgan Abutolib Quttiboev fikri teran, sermushohada inson sifatida gavdalanadi. U o‘z millati tarixini, qadriyatlarini saqlab qolish maqsadida Nayman ona haqidagi tarixiy rivoyatni, ‘‘Raymali og‘a va Begimoy’’ afsonasini Kazangapdan yozib oladi. Urushda va asirlikda boshdan o‘tkazgan voqealarni bolalariga xotira sifatida yozib qoldirmoqchi bo‘ladi, ammo o‘z davrining qalb ko‘zi ochiq ziyolilari kabi bu badalni hayoti bilan to‘lashga majbur etiladi. Tansiqboev ‘‘*Quttiboev ingliz polkovnigiga Yevropada partizan bo‘libmi yoki boshqacha yo‘llar bilanmi qanchalik urinmangiz, baribir, Stalinning dahosi bo‘lmaganda g‘alabaga erishib bo‘lmasdi, deb e’tiroz bildirmagan*’’ (I, 157), *varaqda bola qo‘li bilan yozilgan ‘‘bizning uy’’ degan so‘z bor edi. – Ko‘ryapsanmi, bolaning yozgan birinchi so‘zini. Nima uchun ‘‘bizning g‘alaba’’ deb yozdirmagan*’’ (I, 158) qabilidagi tuturuqsiz ayblarni o‘ylab topadi. ‘‘Ikki eshik orasi’’ romanida Robiyaning

otasiga ham *‘‘Hisob ilmini Xorazmiy yaratgan, deb millatchilik qilganmish. Bolalarga Bobur poshshoning she’rlarini o‘qitganmish’’* (I, 72) tarzida ayblov qo‘yiladi.

‘‘Otam yot unsur sifatida to‘g‘ri jazolandi, bunday otadan voz kechaman,
otam singari bunday sinfiy dushmanlarga yer yuzida o‘rin bo‘lmasligi kerak, qaerda bo‘lmasin ular o‘limga mahkum etilmog‘i darkor qabilida so‘zlaysan’’, (I, 65) deb majbur etishganda, Kazangap Orol bo‘yidan bosh olib ketadi va uzoq yillik sargardonlikdan so‘ng Sario‘zakda qo‘nim topadi. Yozuvchi o‘sha davr manzarasini qahramonlari hayoti misolida ishonarli va haqqoniy tasvirlay olgan. Vaholanki, asarda aks etgan zamon bilan yozuvchi zamoni juda yaqin bo‘lib, bu voqealarni muallifning o‘zi teran idrok etgan, chunki adibning otasi To‘raqul Aytmatov ham Abutolib singari achchiq qismatni boshidan kechirgan.

Sobitjon tilidan kollektivlashtirish yillari Sinszyanga ketib qolgan qozoqlar bilan qirg‘izlar endi yana qaytib kelishayotgani, Xitoy ularni kommunalarga kiritib, ko‘rgiligini ko‘rsatayotgani haqida so‘z boradi, ammo o‘g‘lining bularni shunchaki kesatiq, kulgi bilan gapirayotganidan Kazangap nihoyatda g‘azablanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, internat ta’limi Sobitjonni shu ruhda tarbiyaladi, chunki o‘sha davr jamiyati uchun zamonaviy manqurtlar kerak edi. Otasining ta’ziyasiga kelgan Sobitjonning o‘ziga umrini bag‘ishlagan otasiga nisbatan ‘‘Asli o‘zi nobop ota edi. ...Mana, endi o‘sha yomon ota ham yo‘q’’ (I, 28), degan so‘zlari kitobxon qalbini nafratga to‘ldiradi.

‘‘Dashtu dalalarda’’ romanida esa xalq manfaatini o‘ylagan Eshqul polvon hukumat qaroriga zid ish tutib, podani dashtga haydab ketadi va shu harakati orqali xalqning mulkini davlatga topshirilishini oldini oladi. ‘‘– Axir bu qanday turmushki, emin-erkin to‘rtta mol qilolmasang, suyunib-suyunib ot minolmasang! Padariga ming la’nat bunday turmushning!’’ Boyg‘ozi kalning bu noroziligi o‘sha davr jamiyati qonunlariga nisbatan edi. Hatto noroziligini bildirish uchun molxonasiga o‘t qo‘yadi. Xaloyiqni jamiyatning bu qonuniga qarshi chiqishga da’vat etadi, agar xalq koriga yaramas ekan Eshqulning ham polvonligi hech qanday qiymatga ega emas deydi: ‘‘Ikki-uch boshdan ortiq mol qilinmasin emish, ortiqchasini davlatga topshir emish! Bu ahmoqona qonunni qaysi enasi baytol o‘ylab topgan o‘zi, a?!’’ (IV, 68).

Sobitjon singari Farmonov ham partiyaning topshirig‘ini so‘zsiz ado etadigan zamonaviy manqurtlar sirasiga kiradi. Eshqul polvon Farmonovga ‘‘Odamlarni buytib siqquncha, xaloyiq, chog‘ing yetgancha mol qil, ham el to‘yadi, ham o‘zing demaysanmi?!’’, xalqqa biroz yon bos deganda, ‘‘– Men otamni aldashim mumkin!...– Lekin partiyani hech qachon alday olmayman! (IV, 72) qabilida gap qiladi. Hatto bo‘z bo‘ri qo‘liga chang solib, o‘lim bilan yuzma-yuz kelganda ham Farmonov ‘‘Men xudoga emas, partiyaga ishonaman!’’, deydi. Ko‘rinadiki, partiya boshqaruvi o‘z dinini, millatini, oilasini tan olmaydigan jirkanch toifani shakllantirib, aynan shularning qo‘li bilan xalqni boshqarardi.

Eshqul polvon xalq dardini o‘ziniki deb qabul qilib, unga chora izlaydi va podani dashtga haydab ketadi. U umri mobaynida podachilik qilish barobarida dasht bilan, undagi jonivorlar bilan ruhan birlashadiki, unga ziyon yetkazuvchilarni hech qachon ayamaydi. Shavkat qirriq dasht jonivorlari suv ichadigan ko‘lni quritib, dashtda dehqonchilik qilmoqchi bo‘lganida, ‘‘Bir vaqtlar vakilga chaqib, elning sho‘rini quritmoqchi eding, indamovdim! Endi dashtning ko‘ksiga tig‘ sanchimoqchimisan?! Yo‘q, bu safar indamay qo‘ymayman, seni ko‘lga cho‘ktirib o‘ldiraman!’’ (IV, 213)

deydi va ‘‘uni faqat ichib quritasan’’ (IV, 214) qabilida uni suvga bo‘ktiradi. Jon achchig‘ida Shavkat qirriq qayta dashtga oyoq qo‘ymaslikka ont ichadi. Yozuvchi bunday ijtimoiy muammolarga o‘sha davr jamiyatining loqaydligini, ammo Ch.Aytmatov ta’biri bilan aytganda ‘‘zaminni yelkasida tutib turguvchilar’’ tabiat va jamiyat mezonlarini mustahkam va sobit ushlab turishini shu epizodik tasvir orqali ifodalaydi. Xuddi shunday muammo – orol dengizining qurishi ‘‘Asrga tatigulik kun’’ romanida Edigey va Kazangap iztiroblari asosida ayanchli aks ettirilgan. G‘aybulla Salomov ‘‘Ranj va ganj’’ nomli maqolasida muammoning mohiyatini shunday izohlaydi: ‘‘Kazangap umrining so‘nggi kunlarida Orolga vidolashish uchun boradi. Ammo bu davrda endi vidolashish yorug‘ dunyodan ko‘z yumayotgan bir mehnatkash insonning o‘z Vatani Orol bilan so‘nggi diydor ko‘rishuvigina emas, balki Orol dengizining ham ahvoli Kazangap va Edigeylarnikidan ‘‘qolishmas’’ edi. Kazangap suvi qurib borayotgan Orolning ahvolini ko‘rib, ruhi ko‘tarilishi o‘rniga, chuqur o‘yga toladi, hafsalasi pir, dili xufton bo‘lib qaytadi. ...O‘shanda Kazangap: ‘‘Orol dunyo turguncha turar edi, endi, mana, shu dengiz ham quriyapti, odam umrini gapirmasa ham bo‘ladi’’, degan edi. O‘shanda u yana bunday degan edi: ‘‘Edigey, sen meni Ona Bayitga dafn etasan. Dengizni esa so‘nggi bor ko‘rib, xayr-xo‘shlashib turishim!..’’ (I, 552). Inson umri nihoyalanib borayotganini sezgach, o‘z yaqinlarining diydoridan oxirgi marta bahramand bo‘lishni istaydi. Orol, dasht, sahro makonlari qahramonlarning ichki makonidan joy olib, shu makonning bir bo‘lagiga aylanib qolishgan. Eshqul polvon, Edigey Bo‘ron va Kazangaplarning tiynati ona tabiat bilan uyg‘unlashib ketganki, ular o‘zlarini tabiat atalmish butunlikning bir qismi deb bilishadi. Eshqul polvon dashtning nafasini sezadi, uning haybatiyu nozikligini qalban his qiladi: ‘‘Bu dasht juda cheksiz va haybatli ko‘ringani bilan jismi-jahoni juda nozik! Unga nojo‘ya tegib quysang, tanasi qaqshab, tabiati o‘zgarib qolishi mumkin’’ (IV, 212). Har ikki adib romanlarida ona tabiatning toptalishini jiddiy ijtimoiy muammo sifatida kitobxon e’tiboriga havola etadi va oqilona yechim izlaydi.

‘‘Kassandra tamg‘asi’’ romanida ijtimoiy xronotop ko‘lami nihoyatda keng. Ota-onasiz ikszurriyotlar va tug‘ilishi insoniyatga halokat keltiruvchi homilalalar faryodi butun bashariyat uchun jiddiy xavf tug‘dirishi mumkinligi yozuvchining falsafiy bashorati yanglig‘ yangraydi. ‘‘Ko‘rinib turibdiki, asarda adibning falsafiy-mantiqiy mushohadalari badiiy-fantastik tafakkur tarzida ifoda etilgan. Ammo bundan Krilsovning ikszurriyotlar yaratish borasidagi tajribalari, o‘zini samo rohibi deb e’lon qilgan Filofeyning ixtirosi – homilalar chinqirig‘i to‘laligicha xayolot mevasi, degan fikr kelib chiqmaydi. Sababki, ana shu ikki muhim voqea, aslida, hayotiylikka juda-juda yaqin...’’ (4, 106). Aytmatovshunos olim Ahmadjon Meliboev olam va odam halokatiga sabab bo‘luvchi inson genetikasi bilan bog‘liq bugungi kunda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar Yaratganning irodasiga qarshi chiqish ekaniga ishora qiladi. Olim ‘‘Ilmga qo‘l urishda nima birlamchi – ilm cho‘qqisiga ko‘tarilishmi, yo inson zotiga xos xudbinlik, manmanlikmi?’’ (5) savolini ko‘ndalang qo‘yadi. Adabiy tanqidchi Rahimjon Rahmat ‘‘Munojot’’dan ‘‘Boqiy darbadar’’gacha’’ maqolasida bu holat mislsiz fojeaga sabab bo‘lishidan yozg‘iradi: ‘‘Olimlarning e’tirof etishlaricha, hozirgi kunda inson DNAsi juda faol, tez sur’atda o‘zgarib, ikki burmalidan o‘n ikki burmali ko‘rinishga o‘tayotir. Kelajakda yer yuzida ikki burmali DNAga ega inson qolmaydi, – deyishmoqda olimlar. Bu degani – Xudo tomonidan yaratilgan hozirgi inson butunlay yo‘qolib, boshqa bir jonzot paydo bo‘ladi’’ (VI, 272). ‘‘Kassandra tamg‘asi’’ hamda ‘‘Boqiy darbadar’’ romanlaridagi ijtimoiy xronotop

hozirgi ilmiy-texnik kashfiyotlar tufayli kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavfdan ogoh etuvchi bashoratga o‘xshaydi. Romanlardagi ijtimoiy xronotop inson va tabiat, inson va jamiyat, inson va zamonaviy kashfiyotlar kabi muammolarni, ularning ziddiyatli munosabatlarini o‘zida qamraydi.

Milliy xronotop. ‘‘Asrga tatigulik kun’’ va ‘‘Dashtu dalalarda’’ romanlarida milliy xronotop to‘y, ta’ziya marosimlari, qalliq olib qochish odati hamda kashtachilik san’ati bilan bog‘liq tarzda ifodalanadi.

Musulmon olamida vasiyat hech bir istisnosiz amalga oshirilishi lozimligi Edigey Bo‘ron tilidan qat’iy ta’kidlanadi: ‘‘Bunday odamni ajdodlari yotgan joyga, Ona Bayitga qo‘yishimiz kerak. Rahmatli o‘zi shunday vasiyat qilgan’’ (I, 27). Asarda dafn marosimida bajarilishi joiz bo‘lgan amallar nozik detallarigacha tasvirlangan: ‘‘Marhumni qoidasiga ko‘ra yuvdi, qoidasiga ko‘ra qo‘l-oyoqlarini to‘g‘rilab bog‘lab, boshini qiblaga qaratib yotqizib qo‘ydi. Oq surpdan keragicha ishlatib kafan tikdi va qoidasi bilan marhumni kafanladi. Ish orasida Edilboyga kafan qanday tikilishini ko‘rsatdi’’(I, 55). Malaqumdichop jarligida Kazangap uchun qabr qazish jarayonini yozuvchi kalxatning nigohi orqali kuzatadi. Yozuvchi tanosuh ta’limotidan foydalanadi, ya’ni Edigey odam o‘lgandan so‘ng ruhi nimagadir aylanishi rost bo‘lsa, chumoliga emas, oqquyruq kalxatga aylanishni orzu qiladi, toki osmondagi kalxatdek Sario‘zak uzra qanot qoqib parvoz qilib, yuksaklardan qadrdon zaminiga suqlanib qarasin. Kazangapni dafn etishgach, Edigey o‘zini birodari oldida ko‘mishlarini vasiyat qiladi. Adib asar yozilgan davr tahlikasidan hayiqmaydi. Kazangap qabri teppasida Edigey Bo‘ron Qur’on tilovat qiladi va o‘zi bu dunyodan o‘tganda, bu rasm-rusumni kim bajara olishi haqida qayg‘uradi: ‘‘Qur’onni kim o‘qiydi, buni bilolmayman. Bular xudoga ishonishmaydi, buning ustiga, hech qanday oyatni ham bilishmaydi’’ (I, 2174). Sho‘ro mafkurasi turkiy xalqlarni dindan, islomiy meros va qadriyatlardan ayirganini bosh qahramonning iztirobli mulohazalarida ayon etadi.

Turkiy xalqlarga xos milliy an’ana – to‘yda oqinlar tomonidan aytishuvlarning do‘mbira jo‘rligida kuylanishi edi. ‘‘Raymali og‘a va Begimoy’’ afsonasida milliy xronotop Begimoyning Raymali og‘ani aytishuvga chorlovida namoyon bo‘ladi: ‘‘Baxtim kulgan kuni huzuringda soz chertib kuylab bersam, yengilib qolsam ham mayli, mening bu beodobligimni yana xudoning o‘zi kechirsin, sendek ulug‘ jirlovchi bilan bir aytishib ko‘rsam, deb niyat qildim. O, Raymali og‘a, visol onlarini kutgan oshiq singari men bu saodatli damlarni sog‘inib, entikib kutdim’’ (I, 231). Qadimda baxshilar aytishuvda kelin-kuyov sha’niga ezgu tilaklar bildirishgan, ularga tinch-totuv hayot tilashgan.

O‘zbek millati tafakkuriga xos tasvir va obrazlarning yorqin ifodasini ‘‘Dashtu dalalarda’’ romanida ko‘rish mumkin. Eshqul polvon Tollijarliklarga qiz bermayman, deb ont ichgan O‘sarqul battolning qizini sevib qoladi, hech chora qolmagach, qizni olib qochadi. Yuqorigazada yuzma-yuz bo‘lishgan Eshqul polvon qaynotasi O‘sarqulga vaqtida o‘zi ham ayolini olib qochganini eslatadi: – Axir o‘zingiz ham ayolingizni opqochib uylangansiz-ku. – Mening yo‘rig‘im bo‘lak! – Menam o‘zimni sizdan kam chog‘lamayman! (IV, 42) Eshqul polvonning aslida Oybarchinni olib qochishiga sabab otasining nihoyatda battolligi oqibatida ayoli va qiziga zug‘um o‘tkazishi edi. U shunday azobli muhitdan qizni qutqarishni istaydi: ‘‘O‘sha kuni Eshqul polvonga ta’sir qilgani boshqa narsa bo‘ldi. U ko‘hlikkina qizning ko‘zlarida alam va nomus yoshlarini ko‘rdi. Qiz otasining qilig‘idan uyalib, yerga kirib ketgudek esa-da, yanoqlarini yuvayotgan shashqator ko‘zyoshlarini yashirib o‘tirmadi’’ (IV, 146). Yozuvchi qayliq olib qochish udumini asarda o‘rinli qo‘llagan.

Kashtachilik juda qadimiy san’at turi bo‘lib, asosan ayollar tomonidan yaratilgan. Oygul ipakka jon bag‘ishlab, qalbidagi nozik tuyg‘ularini go‘yo bejirim gullar jilosiga ulab, mo‘jiza yaratardi. ‘‘O‘tov ichkarisiga gir aylantirib osilgan kashta va palaklarga’’ (IV, 127) qarab, Oygulning nafis didini musavvir ilg‘adiyu, hayratini yashirolmay, unga ‘‘dashtning gavhari’’(IV, 128) deya ta’rif berdi. Ayrim bezaklar ustida musavvir bilan tortishmoqqa jur’at etgan xotini ayrim naqshlarning ma’nosini musavvirdan ko‘ra tuzukroq fahmlardi. Yozuvchi Oygulning san’atni his qila olishi, yaratishdan zavqlanishi orqali o‘zbek ayollariga xos nozikta’blikni go‘zal ifodalarda tasvirlagan.

Har ikki adib romanlarida uchraydigan bo‘ri obrazini ham milliy xronotop ifodasi sifatida e’tirof etish mumkin. Boisi ‘‘bo‘ri qadimdan barcha turkiy xalqlarning totemidir. Ashin urug‘i o‘zlarini bo‘ridan tarqalgan deb hisoblashlari to‘g‘risida afsonalar mavjud. ‘‘Alpomish’’da Boybo‘ri, ‘‘Qo‘rqut ota kitobi’’da Boybo‘rak obrazlarining yaratilishi, ‘‘O‘g‘uznoma’’da bo‘ri turkiy qavmlarni boshlovchi asosiy qahramon darajasiga ko‘tarilishi qadimiy e’tiqodlar ifodasidir. Enasoy yodnomalaridagi Chuchuk Bo‘ri Sangun ismi ham totemlik belgisi bo‘lib, u qadimgi turkiy dostonlar bilan yodnomalar o‘rtasidagi yaqinlikni ko‘rsatadi’’ (1). ‘‘Qiyomat’’dagi Akbara va Toshchaynar, ‘‘Dashtu dalalarda’’ romanidagi Bo‘zbo‘ri va Qoramanglay obrazlari orqali adiblar inson va bo‘rilarning ruhan yaqinligi, inson dunyosining murakkab sinoatlarini aynan shu obrazlar asosida yoritilishining guvohi bo‘lamiz. O‘z qavmidan bo‘lganlardan ozor chekkan qahramonlarning aynan bo‘ridan madad istashi, balki qadimda totem sifatida bo‘rining ulug‘lanishiga borib taqaladi.

Bir suhbatda Eshqul polvon bo‘z bo‘rini g‘amlama yig‘ishini, odamlar ham qish ozuqasini vaqtida jamg‘arishi kerakligi, ammo ba’zilar vaqtni behuda sarflashini aytganda, nojo‘ya savol bergan suhbatdoshini begona, bo‘z bo‘rini esa inim deydi: ‘‘– Bo‘zbo‘riga qarindoshchilik joyingiz yo‘qmi, ishqilib, ikki gapning birida shuni tilga olasiz, – deydi hiringlab. – Bor! – deydi Eshqul polvon uning muddaosini anglab. – U sendayin begona emas, tutingan inim bo‘ladi! (IV, 171) Saksovulga bog‘langan, hayot shami so‘nib borayotgan Avdiyni Ober Kandalov boshliq vahshiylar to‘dasi azoblaganda, ‘‘Meni qutqar, bo‘rijon’’ (I, 454), deya ingraydi, undan panoh istaydi.

Ch.Aytmatov va N.Norqobilov romanlaridagi milliy xronotopning mushtarakligi shundaki, ular turkiy millatga mansub bo‘lib, bir havodan nafas olishgan va bir buloqdan suv ichishgan. Milliy va diniy qadriyatlar, an’analar bir tarixiy ildizga borib taqaladi, bu ildizlarda ajdodlarimizning buyukligini tasdiqlovchi dalillar bor, avlodlarning kelajak orzu-umidlarini ruhlantiruvchi da’vatlar mavjud.

Folklor xronotopi. Har ikki adib romanlarida analitik folklorizmlar emotsional-ekspressivlikni oshirish, qahramon ruhiy olamidagi evrilishlarni tasvirlash singari badiiy-estetik vazifalarni bajarish barobarida millatning e’tiqodi, qarashlari, urf-odatlarini ifodalashda va davrning ijtimoiy, axloqiy, ma’naviy muammolarini mushohada qilishga xizmat qiladi. Afsona, rivoyat, qo‘shiq, maqol, matal kabi janrlar yozuvchilarning ijodiy maqsadiga ko‘ra roman badiiy olamiga singdirilgan. ‘‘Yozuvchilar folklorning bu janrlari badiiy-poetik imkoniyatini jalb etish orqali asarda tasvirlanayotgan, davrning o‘zakli, dolzarb muammolarini analitik mushohada etishga hamda ularga yechim topishga harakat qiladi’’ (2, 17). Adabiyotshunos I.Yakubov romanning sinkretiklik xususiyatini shunday izohlaydi: ‘‘Romaniy tafakkur tarzi va poetik tasvir usuli yozuvchi badiiy

olamida shakllanadi. Roman jahon xalqlari badiiy tafakkurida vujudga kelgan shakllar va vositalarni ijodiy o‘zlashtirib, tamomila yangi poetik voqelik yaratadi. Zamonaviy o‘zbek romanlari sinkretiklik xususiyati ortib borayotgani sababi shunda.’’ (13, 15). Olim A.Ulug‘ov xalq og‘zaki ijodi janrlarining o‘rni va vazifasini yanada teranroq ifodalaydi: ‘‘XX asrda afsona, rivoyatlar san’at va adabiyot uchun mislsiz manba ekani yanada ayonlashdi. Insonning ichki olami, qalb jumbog‘ini ochishda rivoyat, afsonalarning asosiy omilga aylangani, asarlarning eng qiziqarli, yodda qoladigan jihati aynan afsona, rivoyatlar bilan bog‘liq ekani kishini hayratga soladi’’ (11). ‘‘Asrga tatigulik kun’’ romanida Nayman ona rivoyati nafaqat Sobitjonning xarakter xususiyatini, balki o‘sha davr ijtimoiy manzarasini, Raymali og‘a va Begimoy afsonasi Edigeyning Zarifaga nisbatan samimiy muhabbatini, ‘‘Qulayotgan tog‘lar’’ romanida ‘‘Mangu qayliq’’ afsonasi Arsen va Elesning ayanchli sevgisini tasvirlashda; ‘‘Qoraquyun’’ romanida Donishota rivoyati orqali insonlarning tubanlikka, zalolatga yuz tutayotgani, o‘z manfaati yo‘lida hech qanday jamiyatu jamoani tan olmasligi parallel xronotop asosida ifodalanib, romanning poetik imkoniyatlarini kengaytirishga, yangi estetik qirralarini ochishga imkon yaratgan.

Donishota rivoyatida ‘‘qavm ahli u kishini tog‘da makon tutgan ilk odam hamda tog‘lar bag‘rida umrguzaronlik qilib kelayotgan barcha qavm va elatlarning bosh bobosi deb bilishi’’, (IV, 97) ammo jaholatga esh tutingan o‘g‘illari nizo gulxanini alangalatishi, bu holdan dili vayron bo‘lgan Donishota kunlardan birida ushbu qoyaga bosh qo‘yib, qaytib ko‘z ochmagani, o‘sha tun ko‘kda g‘alati chaqin chaqnab, uning ruhini o‘ziga singdirgan qoya yuzida Donishota siymosi paydo bo‘lishi hikoya qilingan. Odamlarning qilayotgan amallari ma’qul bo‘lsa, toshda aks etgan siymoda mamnunlik, noma’qul bo‘lsa, norozilik alomatlari sezilarkan. Ko‘kalabosh qavmi ham, Olabosh qavmi ham Donishota siymosini muqaddas bilishgan. Qalaybek tili bilan aytganda, bu musavvir chol jonivorlar odamlar tazyiqidan xoli bo‘lgan, keyinchalik odamlar jonzotlarni mahv etgan zamonlar aks etgan birinchi va ikkinchi guruh suratlari haqida hamda yer, quyosh, oy kabi barcha jonzot bir-biriga jondosh va birodar bo‘lishi joizligi, ammo inson bu yo‘riqqa amal qilmagani bois uchinchi guruhdagi suratlarni qizg‘ish va qizil bo‘yoqlarda chizganini Qalaybekka so‘ylab beradi. Asarda Donishota obrazi tog‘ ruhi sifatida gavdalanadi. ‘‘Qulayotgan tog‘lar’’ romanidagi ovchi yigit va qaylig‘ining tog‘da darbadar kezgan ruhida monandlik mavjud. Har ikki romanda tog‘ ruhi obrazining keltirilishidan ayon bo‘ladiki, yaqinlaridan aziyat chekkan, jaholat qurboni bo‘lganlarning ruhlari qo‘nim topmaydi, sarson-sargardon kezinib, dardu alamlarini so‘ylab yurishadi. Ta’kidlash joizki, yozuvchilarning zulm va zo‘ravonlik mazlumga achchiq qismatni ravo ko‘rishi borasidagi g‘oyalari shu nuqtada tutashadi.

N.Norqobilov sintezlashgan folklorizmlarni mahorat bilan romanlari syujetiga biriktirib, singdirib yuborgan, natijada motiv va obrazlar stilizatsiyasi yuzaga kelgan. Doston, afsona, rivoyat janridagi obrazlar bilan stilizatsiyasi Eshqul, To‘lanboy obrazlarida kuch-qudrat, pahlavonlik, Itolmas obrazida zolim hukmdor, Oybarchin, Oygul, Oybekach obrazlarida go‘zal, dono va tadbirlilik sifatlarining mavjudligida namoyon bo‘ladi. Tush ko‘rish, fol ochish hamda qasoskorlik motivlari qahramonlar qalbidagi g‘alayonni tasvirlash, ro‘y berajak voqealardan ogoh etish hamda personaj o‘tmishi, hoziri va kelajagida sodir bo‘layotgan voqealarning mantiqiy izchilligini ta’minlashga imkon bergan.

Qahramonlar nutqidagi oddiy folklorizmlar – maqol, matallar badiiy qatlamidagi mazmun asar g‘oyasi bilan uyg‘unlashib, voqealar mohiyati va qahramonlar xarakterini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sobitjonning naqadar pastkash va insoniylikdan butkul yiroqligini yozuvchi uning tilidan keltirgan ‘‘O‘ladigan odamning o‘lgani yaxshi, ketadigan odamning ketgani yaxshi’’ maqoli orqali dalillaydi.

‘‘O‘z elidan payg‘ambar chiqmaydi’’ matali Entoni Yunger tomonidan Robert Borkka nisbatan aytiladi. Qadimgi slavyan tilida ‘‘O‘z yurtida payg‘ambar yo‘q’’ (Net proroka v svoey otechestve) ifodasi mavjud bo‘lib, ifodaning ma’nosi – odamlar yonidagi odamning iste’dodiga, dahosiga yoki so‘zining haqiqatiga ishonishmaydi. Haqiqatan ham, donishmand, to‘g‘riso‘z bu yerda emas, balki olislarda tug‘ilishi mumkin, deb taxmin qilishadi(14). Prezidentlikka nomzodini qo‘yayotgan Oliver Ordok Filofeyning maktubi bo‘yicha futurolog olim Borkning mulohazalari bilan qiziqadi. Shunda Entoni Robertning qobiliyatiga tan berib, ‘‘men yana bir marta amin bo‘ldimki, prezidentlik kursisiga da’vogar bo‘lgan siyosatdon dastlab siz bilan, sizga o‘xshagan mutafakkir bilan maslahatlashishi kerak ekan’’, (III, 122) deydi.

‘‘Daraxt kessang, payraxa uchadi. (Les rubyat – щepki letyat) Ruslarda shunday matal bor’’ (III, 123). Robert Bork tilidan aytilgan bu matal har qanday murakkab muammoga yechim izlashda, biror narsani qurbon qilishga tayyorgarlik ko‘rish kerak mazmunini bildiradi. Ya’ni odamlar ‘‘butun tarix davomida, avloddan-avlodga muntazam sur’atda bir-birlarini qiynab, jonlarini olib kelishgan, oqibatda, insoniyat yashab ketgan dunyo ko‘p narsa yo‘qotgan; o‘zlarining tarixiy takomil topish yo‘lida qo‘lga kiritishi mumkin bo‘lgan juda ko‘p yutuqlardan mahrum bo‘lishgan. ...bularning barcha-barchasi Filofey ko‘zi bilan qaraganda borgan sari ko‘payib ketayotgan kassandra-embrionlarning nidosiz noroziligida o‘z ifodasini topmaganmikan? (III, 124). Ikkala adib romanlarida oddiy va murakkab folklorizmlarning qo‘llanilishi romanlar folklor xronotopini yuzaga keltirgan. Ch.Aytmatov uslubida folklor xronotopini yaratishda Sharq va G‘arb an’analarining sintezlashganini ko‘rish mumkin. N.Norqobilov uslubida sharqona an’analar yetakchilik qiladi.

Fantastik xronotop. Amerikalik fantast Ayzek Azimovning ‘‘Men fantastikadan jamiyatni tanqid qilish uchun foydalanaman. Xuddi shunday boshqa hamma fantastlar ham bu sohada aynan shu maqsadda foydalanadi’’ (3) ta’kidi aynan Chingiz Aytmatov uslubiga ham xos. ‘‘Asrga tatigulik kun’’, ‘‘Kassandra tamg‘asi’’ romanlarida falsafiy-psixologik-intellektual fantastika sifatida baholangan turborealizm asar zamiridagi ijtimoiy muammolarni taxayyul kuchi bilan ifodalashga xizmat qilgan. ‘‘Asrga tatigulik kun’’ romanida qadimgi turkiy xalqlar tamadduniga xos insoniy sifatlar ulug‘lanib, etnik ildizidan uzilgan shaxs fojiasi tasvirlansa, ‘‘Kassandra tamg‘asi’’ ilmiy fantastik romanida esa axloqiy ildizlardan uzilgan insoniyatning ayanchli taqdiri va bunday taraqqiyotning kelajagi yo‘qligi badiiy ifoda etilgan (10, 131).

Muallif umumbashariyatga daxldor ijtimoiy muammolarning poetik jihatdan yangicha yo‘sindagi ifodasini shunday izohlaydi: ‘‘yozuvchilik tajribamda birinchi marta fantastik syujetdan foydalanishga urindim. ...Tabiiyki, g‘ayrizaminiy taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar va unga vobasta barcha voqealar hech qanday real asosga ega emas, albatta. Aslida, dunyoning hech qaerida Sario‘zak kosmodromi ham, Nevada kosmodromi ham yo‘q. Barcha ‘‘fazoviy’’ kechmish voqealar tasviridan muddao – yer kurrasidagi odamlarga xavf-xatar tug‘dirishi mumkin bo‘lgan vaziyatni favqultabiiy va mubolag‘ador formada keskinlashtirib

ko‘rsatishdan iboratdir’’ (I, 8-9). ‘‘Asrga tatigulik kun’’ romanidagi fantastikaga xos ramziy usullar realizmga bo‘ysundirilgan bo‘lib, o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy holatini badiiy ifodalash imkonini bergan. ‘‘Kassandra tamg‘asi’’ romanining syujeti mening fantaziyam’’, deya etirof etgandi adib(12). Yerda sodir bo‘layotgan voqealarga parallel tarzda rivojlangan ikkinchi syujet chizig‘idagi voqealar silsilasi – yangi To‘qayto‘sh sayyorasining kashf etilishi, o‘zga sayyoraliklarning yerliklar bilan muloqot o‘tkazish uchun olib borayotgan sa’y-harakatlarini ifodalashda fantastikaning o‘rni beqiyos bo‘lib, romanning zamon va makon ko‘lamining kengayishiga (voqealar zaminu samoda ro‘y beradi), badiiy-g‘oyaviy salmoqdorlikning oshishiga va ijodiy niyatning yuzaga chiqishida muhim estetik omil sifatida ahamiyat kasb etgan. Yozuvchining har ikki romanida fantastik tasvir usullaridan foydalanishidan asosiy maqsadi inson aql-idrok qudratini Yaratganning azmu irodasiga qarshi yo‘naltirish jinoyatlarning eng qabihi ekanligini uqtirishdan iborat. Bu jumboqqa Filofeyning mushohadalari orqali javob izlaydi: ‘‘Ilmiy tajribalar bilan jinoyat o‘rtasidagi chegara qaerdan o‘tadi, ana shu omonat chiziqni kim ko‘rsata oladi?!’’ (III, 316) ‘‘Kassandra tamg‘asi’’ romani ilmiy-fantastik roman bo‘lib, bosh qahramon inson genofondini buzishga qaratilgan tajribalarni, avvalo, yerda, so‘ng samoda o‘tkazadi. Adib asarlarining mohir tarjimoni A.Rashidov bunday tajribalar insoniyat boshiga halokat olib kelishini shunday ta’kidlaydi: ‘‘Asar bilan tanishgan kitobxon go‘yoki adibning ‘‘Ey, odamlar, Alloh sizga o‘zining behisob sifatlaridan biri bo‘lmish yaratuvchilikni baxsh etgan bo‘lsa, nega uni suiste’mol qilib o‘zingizcha odam yaratishga urinib tiriklikning mangu barqarorligiga rahna solayapsiz? Yer silkinishlari, ekologik fojialar, yadro sinovlari, yaqin qavmlar o‘rtasidagi qatliomlar, jinoyatchilik, terrorizm, giyohvandlik, fohishabozlik kabi balo-qazolar yetmaganday, yana sun’iy odam yaratish bilan Yaratuvchining ishlariga aralashyapsiz? Bu harakatlaringiz bilan Uning qahriga uchramaysizmi?’’ degan xitobini eshitgandek bo‘ladi (7, 207). Bosh qahramon o‘zini ‘‘Otalik va Onalikning ta’qibchisi va ko‘zga ko‘rinmas jallodi’’ deb ta’riflaydi. Bugungi kunda yaratilayotgan ikszurriyotlarning taqdiri qanday kechishi yozuvchini chuqur o‘yga toldiradi.

Filofeyning Rim papasiga va Entoni Yungerga yo‘llagan tavba-tazarrusida olib borgan tadqiqotlari uchun afsus-nadomatlar chekadi: ‘‘Mening o‘zimga la’nat o‘qiyotganimni, o‘zimni razil mazoxist deb, itvachcha deb atayotganimni hech kim bilmaydi!’’ (III, 344). Xullas, yozuvchi fantastik g‘oyalari bilan har qanday ilmiy kashfiyot insoniyat taraqqiyotiga safarbar etilishi lozimligini qat’iy ta’kidlaydi. Isajon Sultonning ‘‘Boqiy darbadar’’ romanidagi g‘oyalar ‘‘Kassandra tamg‘asi’’ asari voqealarning mantiqiy davomidek tuyuladi. Genetika mutaxassisi Georg Mendel anjumandagi nutqida gen o‘ramlari qarshisida soatlab termilib turgan onlarida ‘‘Yaratgan Parvardigorimning nizomini buzishga urinib, xato qilmayapmanmi’’ (VI, 31), degan savol qiynaganini aytadi.

‘‘Tangrining irodasiga isyon o‘laroq, ya’ni u belgilab bergan hayot-mamot va taqdir chegaralaridan jasurona sakrab o‘tib, halokatli barcha ta’sirlarga chidamli va jarohatlangan a’zosini tezda tuzata oladigan, tafakkur jihatidan odamlardan bir necha baravar ustun’’36 qilib yaratilgan genom uni kim nima maqsadda yaratganiga javob istaydi. Bu makonda bo‘lishi Uning yaratishdan ko‘zlagan irodasiga mos kelgani taqdirda, albatta, qaytishini, mos kelmagan taqdirda esa mos keladigan makon va zamon izlashini ma’lum qilib, laboratoriyani tark etadi. Voqealar yakunida ko‘tarilgan to‘fon jamiki yaratiqni chilparchin qilib, hammasini yo‘qlikka mahkum qiladi. Har

ikki romanda ham *Yaratganning ishiga aralashgan* olimlar hayoti halokatli yakun topadi. Adiblarning falsafiy bashorati bugungi kunda amalga oshirilayotgan ilmiy-texnik kashfiyotlarning ezgulikka xizmat qilishi haqidagi da'vati sifatida kitobxonni sergak torttiradi.

Psixologik xronotop. Ichki monolog, portret, peyzaj, qistirma epizod kabi ruhiy tahlil vositalari psixologik xronotopni yaratishda muhim o'rin tutadi.

Ramziy ma'noda ichki va tashqi makonni tutashtiruvchi mehvar ***ko'z*** hisoblanadi. Tashqi olam hodisalari ko'z orqali idrok qilinib, ichki olamda bu holatlarning qanday aks-sado berishi ham aynan ko'zda namoyon bo'ladi. Qahramon ruhiyatini ko'z orqali ifodalashda adiblarning o'ziga xos uslubi mavjud.

Ch.Aytmatov doimiy ravishda qahramon ko'zlarining o'ziga xos xususiyatini, xarakter nigohini yuksak mahorat bilan aks ettiradi, bu adib qarashlari, hayotga yondashuvi, fikrlarini ta'kidlashga imkon beradi. Portretning bir qismi bo'lgan ko'zning o'ziga xos xususiyati, nigoh, balki Ch.Aytmatov qahramonlarining eng kuchli belgisidir. Ba'zan ular portret tavsifida darhol ko'rsatiladi yoki muayyan vaziyat orqali turli holatlarda, ya'ni personaj ruhiy olamida ro'y berayotgan holatlarning ko'zgusi sifatida zuhur topadi. Portret tasvirida yozuvchining sub'ektiv munosabati seziladi. Tansiqboevga chag'irko'z sifatini beradi, Sobitjonning ko'zlariga nisbatan hayosiz, qo'nimsiz ukki ko'zli o'xshatishlarini qo'llaydi. Jo'lomon jungjanglar tomonidan chidab bo'lmas azobga giriftor qilinganini Nayman onaning ''dahshatli qo'rquvdan ko'zlaring kosasidan irg'ib chiqqanida'' jumlasidan kitobxon anglaydi. *Kulimsirab turuvchi bu qop-qora ko'zlar, ko'zlari chaqnab, ko'zlari esa baxtiyorlikdan nur sochib, ko'zlarida bitmas-tuganmas qayg'u, ko'zlari ojizlarniki singari yumilgan, ko'zlari qonga to'lgan* birikmalarida qahramon qalbidagi turli evrilishlar, quvonch va qayg'u o'z ifodasini topgan. Mazkur jadvalda Ch.Aytmatovning psixologik xronotopni ko'z konsepti orqali ifodalash mahorati struktur metod asosida tahlil qilingan.

2-jadval.

''Asrga tatigulik kun'' romanida psixologik xronotopning ko'z konsepti orqali ifodalanishi

Qoramag'iz yuzlari bug'doy rangida tovlanar, **qop-qora ko'zlari** chaqnab turar edi (I, 13).
Edigeydanmi yoki uning ortidagi allaqanday boshqa biror narsadanmi, qar qalay **ko'zini uzmay** ma'yus termilib turdi (I, 21).
Mana endi qarshingda qiyofasidan yoshlik davri arang seziladigan **ukki ko'zli**, doim kulib turuvchi kattagina kishi turibdi (I, 27).
Mana, hozir ham odamlar bo'lmaganida Sobitjonning **hayosiz ko'zlari**ga tikilib turib, aytadiganini aytib olardi-ya (I, 29).
— Kelinglar, tani sog'ligimiz uchun ichamiz,— deya takrorladi Sobitjon xira tortgan **qo'nimsiz ko'zlari** bilan atrofdagilarga nigoh tashlarkan (I, 41).
O'sha kunlar hozirgiday esida — oq xalat, oq qalpoq kiygan, **ko'zlari chaqnagan**, burni katta, norg'uldan kelgan mallarang rus choli edi (I, 55).
Edigey hali tishi chiqmagan, **ko'zlarini mo'ltiratib** ishonch ila boqib, kulimsirab turadigan ma'sum go'dagini eslab, jonu jahoni o'rtanib ketar edi (I, 58).
Hammasidan ham ko'zlari o'zgacha: **kulimsirab turuvchi bu qop-qora ko'zlar**, odamning dilidagini sezib turganday e'tibor bilan boqadi (I, 63).

Jonivorning **ko‘zlari biram chiroyli**, **namchil tortgan bu yirik, tiniq ko‘zlar** bolalarniki singari yoqimli va umidvor boqadi (I, 72).
Bular o‘zga sayyoralar gominidlarining ajoyib tiplari! Badani bug‘doyrangida, sochlari moviy, **ko‘zlari ko‘kish-yashil**, kipriklari momiqdek oq... (I, 84).
Bezraygan sovuq ko‘zlar unga qadalgan edi (I, 98).
...dahshatli qo‘rquvdan **ko‘zlaring kosasidan irg‘ib chiqqanida**, Sario‘zak dashtining dudsiz otashi ostida o‘lim talvasasi bilan olishib, labingni ho‘llashga ham yeru ko‘kdan bir tomchi suv topolmay tashnalik azobida qovrilayotganingda, hatgo borliqqa hayot baxsh etuvchi xurshidi olam senga so‘qir, balo-qazo bo‘lib, dunyodagi jamiki yulduzlar qaro zulmat bo‘lib ko‘ringandir? (I, 109).
Bunday manqurtlarni, kel, boshingni bug‘lab yumshatamiz, deb qo‘rqitishsa, go‘yo bundanortiq jazo yo‘qdek, **ko‘zlari qinidan chiqib ketar** ekan (I, 111).
Ona **ko‘zlariga yosh olib**, og‘ir xo‘rsindi (I, 115).
Ammo ko‘zlari **dunyoni tark etgan kishining ko‘zlari**day loqayd boqardi (I, 118).
Jungjang uchangida tik turib, nayzasini o‘qtalgancha **ko‘zlarini chaqchaytirib** atrofga nazar tashlardi. (I, 121).
Sochlari oqarib ketgan, manglayini ajin bosgan, **g‘am-g‘ussali ko‘zlari**ga esa Sario‘zak xuftoni singari g‘am-tashvish cho‘kkan edi... (I, 123).
Cheksiz quvonchdan **ko‘zlari chaqnab**, g‘ayrati ichiga sig‘masdi (I, 127).
Ko‘zlari esa baxtiyorlikdan nur sochib chaqnab, kumush tishlari tobora yarqirar edi (I, 127).
Uyg‘onib ketgan Edigey **ko‘zlarini yirib-yirtib** bo‘lsa-da, dashtning turli burchaklarida yarq-yurq etib chaqnayotgan yashin nurlarining derazalaridagi aksini ko‘rib qolardi (I, 129).
Uning **ko‘zlari allaqanday makkorona kulimsirab turardi**(I, 143).
Abutolibning yuzlari gezarib, ko‘zyoshlari yonoqlari uzra muzlab qolgan bo‘lsa-da, ammo oppoq qoshlari ostidagi **ko‘zlari shodlikdan tantanavor chaqnab turar edi** (I, 147).
Ermakning **ko‘zlari jovdirab**, yig‘lamsiraganday bo‘lib turardi (I, 147).
U stol ustidagi ‘‘Kazbek’’ qutisidan bir dona uzun papirosni olib, ezg‘ilab-ezg‘ilab chekdi va eshik bo‘sag‘asida turgan Edigeyga lochin ko‘zi singari **sarg‘ish chag‘ir ko‘zlari** bilan tikilib qaradi... (I, 153).
– Kimning ishi bor deganing nimasi? – **chag‘irko‘z** hayratlangancha o‘q kabi teshib yuborguday tikilib qaradi (I, 154).
U o‘rniga o‘tirdi-da yana avvalgidek nursiz yuzidagi lochinnikidek tiniq, **sarg‘imtir ko‘zlari** bilan amirona qadalib qaradi (I, 159).
Biroq Abutolib bolalarining **mo‘ltiragan ko‘zlari**ga qararkan, savollariga javob beraolmay yurak-bagri ezilardi (I, 171).
Butun olam **ko‘ziga qorong‘i ko‘rinar**, oxiri alamini shamoldan, qor uyumlaridan, tinim bermay ishlayotgan tuyalardan olmoqchi bo‘lardi (I, 172).
Ko‘zlarida bitmas-tuganmas qayg‘u. Ich-ichidan qo‘rqyapti, shekilli (I, 179).
Ko‘zlari ojizlarniki singari yumilgan, boshini tik tutib, g‘am-g‘ussasini ichiga yutib, lablarini qattiq qimtib olgancha kelardi (I, 181).
Bu yangi olamga tasodifan tushib qolganidan, yum-yumaloq, **musaffo ko‘zlarini** yummay, bir zumgina qimir etmay turib qoldi (I, 201).

Edigeyning **ko‘z oldini g‘ussali bir parda qoplagan**. Edigey bu jumboqlarga javob topolmas, xunob bo‘lar, iztirob chekar, ruhi tushar, nochor orzular bilan o‘zini umidvor qilardi... (I, 210).
Uning qo‘rquvi og‘riq azobida **xonasidan chiqayozgan dahshatli ko‘zlarida** Edigey xuddi ko‘zguda ko‘rgandek o‘z aksini ko‘rib qoldi va o‘z vajohatidan o‘zi cho‘chib ketdi. (I, 219).
Go‘yo **hech narsani ko‘rmayotganday ko‘zlari hech narsani ifoda etmasdi** (I, 222).
Ko‘zlari yayrab, **ravshanlashib ketdi**, orziqib kutgani osmonu falakdan bir nido eshitilganday hushyor tortdi (I, 231).
Ko‘zi qonga to‘lgan yigitlar shu zahotiyoq Saralani shahd yiqitishdi-da, hash-pash deguncha to‘rttala oyog‘ini qil arqon bilan chandib tashlashdi (I, 239).
– Salom, – deya chekkasiga qo‘lini qo‘ydi soqchi bolalarnikidek **beg‘ubor ko‘zlari**ni Edigeyga tikib (I, 243).
Ularning mayda o‘rilgan sochlari silkinar, **ko‘zlari porlar edi** (I, 251).
Poezddan hoziroq sakrab tushib, unga qarab yugurar, bir zumda yetib borib, oyoqlari ostiga yiqilar va hamma dard-alamlarini, qayg‘u-hasratlarini **ko‘z yoshlari bilan to‘kar**, uyalmay-netmay yig‘lar edi... (I, 261).
Men hozir xizmatdaman, – tushuntirgan bo‘ldi u **chag‘ir ko‘zlari** ustidagi qora qoshlarini chimirib (I, 263).
Hozir bu **qahrabo ko‘zli**, qayrilma tumshuqli kalxatchalar kundan-kunga to‘lishib, qanotlari kuchga kirib, allaqachon, mustaqil hayot kechira boshlagan (I, 267).

N. Norqobilovning mahoratini e’tirof etish lozimki, ko‘z tasviri asarning umumiy badiiy-g‘oyaviy maqsadini ifodalashda xizmat qiladi. Adib qahramonlarining ko‘zlarini tasvirlashda ko‘pincha realistik an’analarga tayanadi. Qahramon qalbidagi ichki ziddiyat, ruhiyatidagi murakkab jarayon, o‘y-fikrlar kurashi aynan ularning ko‘zida aks etadi: *ko‘zlari tubida adadsiz qahr to‘ng‘ib qolgan Erman, bosqinu qon to‘kishga qarshiligi yuz-ko‘zidan oshkora sezilib turgan Qalaybek, ko‘zlarini o‘qday qadagan, ko‘zlaridan uchqun sachragan Oybekach, itday ko‘zlarini javdiratgan Qoraqul* – bu sifatlar qahramon qalbidagi g‘alayonlarni ifodalash bilan birga ularning individual xususiyatlarini ham aks ettira olgan.

Oybekach portretida semantik qarama-qarshilik yuzaga keladi, chunki uning ko‘zlari *charos, shahlo, nurlanib, yolqinlanib turuvchi* sifatlari orqali tasvirlangani barobarida adadsiz qahru g‘azabga, mungga to‘laligi aytiladi. Vaholanki, yozuvchi Itolmasning vahshiyligini, yigitlarning yosh umrini chohda xazon qilayotganini, o‘zi bir emas, uch marotaba uylanish holatlarini aynan Oybekach nigohi orqali kuzatadi: *‘‘ayolning* ***nurlanib, yolqinlanib turuvchi ko‘zlari****da, tevarak-atrofdagi kimsalarning* ***hissiz, loqayd va sovuq qarashlar****idan farqli o‘laroq, hamdardlikdan tashqari, taassuf va qahrga o‘xshash shunday bir ifoda zuhur ediki’’,* bu zuhurot aynan o‘z eri Itolmasning yovuzligiga va bandi yigitlarning shu taqdirga ko‘nib yashayotganlariga qarshi isyon edi.

3-jadval

‘‘Qoraquyun’’ romanida psixologik xronotopning ko‘z konsepti orqali ifodalanishi

U shu ketishida to‘da boshida kelayotgan keng yag‘rinli, burgut qarashli, qora soqoli juda kalta kuzalgan kimsa – Itolmasni **ko‘z ostiga** olgandi (V, 5).
Erman tutingan inisi bo‘lishiga qaramay, bosqinu qon to‘kishga qarshiligi yigitning yuz-**ko‘zidan oshkora sezilib turardi** (V, 27).
Juvonning **charos ko‘zlari** adadsiz qahru g‘azabga limmo-lim to‘la edi (V, 29).
U kutilmagan bu sog‘inch hissi yuragida mudom alangalanib turgan qasos o‘tini o‘chirib qo‘yishidan qo‘rqqanday, **ko‘z o‘ngida bo‘y rostlagan** Oybekachning o‘ktam va go‘zal siymosini jon-jahdi bilan nari quvlashga tirishdi (V, 36).
- Yo‘q, o‘zim tanlayman, – dedi Erman **ko‘zlari olovlanib turgan** Ko‘kishga xavotirli boqib (V, 45).
Qarshisida o‘zi bilgan avvalgi Erman emas, **ko‘zlari tubida adadsiz qahr to‘ng‘ib qolgan**, mehr-shafqat hissidan o‘ta yiroq bir kimsa misli bo‘riday tikilib turardi (V, 47).
Qoya puchmog‘iga qadalgan **ko‘zlarida na nur, na ma’no bor** (V, 48).
U oti yuganidan tutib, g‘orning u boshidan chiqarkan, quyosh nuriga yo‘g‘rilgan olamga **baxtiyorlik ko‘zi** bilan qarashga intilardi (V, 61).
U avvaliga ayb ish qilib qo‘ygan boladek bo‘zaradi, so‘ng **ko‘zlari g‘iltillab**, shosha-pisha o‘zini oqlashga tushadi (V, 75).
Bu qavm ahli Donishotani bosh bobo sifatida tan olishsa-da, ammo, bu bizga ota meros, deya o‘zga qavmlarga nisbatan **g‘anim ko‘zi** bilan qarashdan o‘zlarini tiyisholmaydi(V, 94).
Yo rashk ayolning **ko‘zini shunchalik ko‘r qilib qo‘ydimikan**? (V, 100).
Oybekachning **ko‘zlari to‘la mung bo‘lsa-da**, qarashlari hamda o‘zini tutishi odatdagidek, juda o‘ktam edi (V, 102).
Ammo Erman to‘ydan bir kun oldin Oybekachning **ko‘zlari odatdagidan ko‘ra o‘zgacharoq chaqnayotganini** tuyqusdan payqab qolgandi (V, 105).
O‘shanda **hayotga tashnaligi ko‘zlarida yaqqol aks etib turgan** jonivor o‘limni g‘oyatda nopisand kutib olgan, ‘‘bo‘l, tezroq jonimni olaqolsang-chi endi’’, deganday undan nigoh uzmagan (V, 106).
It ro‘parasiga kelishi bilan **ko‘zlarini chirt yumib oladigan** Erman, u nari ketishi bilan qushday yengil tortib, avval bir ko‘zini, so‘ng ikkinchisini ochib, tevarakka asta razm solarkan, doimo bir holdan g‘oyatda taajjubga tushadi - ko‘radiki, aql-idrok sohibi hisoblanmish bir to‘p olomon o‘ta ko‘ngilsiz bu manzarani, odatdagidek, juda maroq bilan tomosha qilmoqda (V, 119).
U qo‘liga nayza tutgan ibtidoiy odamlar shakl-shamoyilini ko‘rishni istamay, ichki bir og‘rinish bilan **ko‘zlarini yumadi** (V, 141).
Bu kamdek, ayolning **nurlanib, yolqinlanib turuvchi ko‘zlari**da, tevarak-atrofdagi kimsalarning **hissiz, loqayd va sovuq qarashlar**idan farqli o‘laroq, hamdardlikdan tashqari, taassuf va qahrga o‘xshash shunday bir ifoda zuhur ediki... (V, 149).
Oybekach esa, mijjalarini namlab, **ko‘zlarini o‘qday qadab turaveradi**. Bu qilig‘i kamdek, qarashiyam sira odam bolasinikiga o‘xshamaydi – yaralangan yirtqichday, **ko‘zlaridan uchqun sachraydi** (V, 159).
Kipriklarida **yaltillab turgan ko‘z yoshlari** olov yolqinida bir lahzaga aks etib, asta yanoqlarini yuva boshladi (V, 164).
Yag‘riniga kaltak kelib tushishidan qo‘rqqan **itday ko‘zlarini javdiratgancha** chohdan uzoqlashadi (V, 167).
- Zaril keptimi... – dedi Omontoy sir boy bermaslikka tirishib, **ko‘zlarini lo‘q qilganicha** (V, 168).

- Sen nafaqat ularni o‘ldirding! – dedi Itolmas yanada bosiqlik bilan. – Eringni **ko‘ziga cho‘p suqding**! (V, 187).

Inson va jonzot psixologik xronotopini yaratishda Ch.Aytmatov va N.Norqobilov dinamik, analitik, sinkretik prinsiplardan mohirona foydalanishgan. Adiblar mahoratidagi o‘ziga xoslik shundaki, Ch.Aytmatov ijodida analitik prinsip, N.Norqobilov ijodida dinamik prinsip xususiyatlari ustuvorlik kasb etadi. Umumiy jihatini ta’kidlash joizki, tahlilimizdagi romanlar psixologik xronotopi aynan sinkretik prinsip asosida yanada yorqinroq ifodalangan.

Tush xronotopi. Adabiyotshunos Jabbor Eshonqul ta’kidlaganidek, aql ‘‘dam olib’’, ichki men makon va zamondan mutlaqo xalos bo‘ladi, u o‘z ichki dunyosi – o‘z ‘‘Men’’i ixtiyoriga o‘tib, tush xronotopining sarhadsiz kengliklarida harakatlanadi. Yozuvchilar romanlarida tush xronotopidan muayyan ijodiy maqsadga ko‘ra foydalanishgan. Tahlilimizdagi romanlarda ifodalangan tush xronotopining asar mazmun-mohiyatini ochishdagi o‘rnini quyidagi jadvalda izohlaymiz.

4-jadval.

Zamonaviy romanlarda tush xronotopining struktur tahlili

O‘sha tun Edigey Bo‘ron tush ko‘rib chiqdi. Tushida u yana frontda, o‘q yomg‘iri ostida yotgan emish. Biroq negadir snaryadlar unsiz kelib tushar, unsiz portlab, ko‘kka ko‘tarilgan quyunli tuproq qalqigancha osmonda muallaq turib qolar va yana qalqigancha vazminlik bilan sekin-asta yerga qaytib tushar edi. …Edigeyning ro‘parasida yomg‘irga botib kulib turgan Zarifa paydo bo‘ldi. Tang qoldiradigan bir hol. Chit ko‘ylagi badaniga jiqqa yopishgan, yozig‘lik sochlariyu yuzlaridan yomg‘ir quyilar, o‘zi bo‘lsa tinim bilmay kular edi. …’’Nega munchalik kulyapsan, Zarifa? Bu yaxshilikka emas’’, dedi Edigey. ‘‘Kulayotganim yo‘q, yig‘layapman’’, dedi Zarifa va savalayotgan yomg‘ir ostida yana kulaverdi...(I, 129).	Tushda urush voqealari bilan Zarifa ruhiy holatining tutashuvi Edigey va Zarifani kutayotgan iztirob hamda Abutolibning vafotidan ogoh etadi. Edigeyning tushidagi jang – Zarifani sevib qolganda, uning qalbida kechgan g‘alayonlar ifo-dasi. Tushidagidek hammasi unsiz kechadi.
Boshqa bir gal Ukkubola oltin mekre tushiga kirganini gapirdi. Go‘yo baliq uning atrofida suzib yurarkanu baliqni ushlab olmoqchi bo‘larmish. Baliqni tutib olib, yana suvga qo‘yib yuborishni juda-juda xohlabdi. U baliqni ushlab, oltin tangachalarini bir siypalasa bo‘ldi ekan. Shu qadar tutgisi kelibdiki, tushida uni quvlab yurganmish. Baliq esa tutqich bermasmish... (I, 196).	Ukkubolaning baliqni tuta olmasligi orqali birinchi farzandi nobud bo‘lishiga yozuvchi ishora qilyapti.
Akbaraning tushiga bolalari kirdi, ular inda Akbaraning biqiniga o‘ranib yotishardi. ...Bo‘lturuqlar sut ko‘pligidan tamshanib, chapillatib, maza qilib emishar, bo‘ri vujudi xuddi erib ketayotganday huzurlanardi, faqat nima uchundir suti hech kamaymasdi... Bo‘ri bundan xavotirlanardi. Keyin Akbara tushida o‘zini ulug‘ cho‘l Mo‘yinqumda uchib	Bolalaridan ayrilgan Akbara ularni qo‘msab, tushlarida ko‘radi. Toshchaynar va bolalari bilan samo uzra harakatlanishlari esa asar yakunida ularning halok bo‘lishlarini anglatadi.

ketayotganligini ko‘rdi, uning oyoqlari yerga tegmaydi, yonida to‘rtala bolasi, ular ham uchib borishyapti, shundoq yonlarida esa Toshchaynar katta-katta hatlab sakrayotibdi. Ko‘kda quyosh charaqlayotir, sarin shabada yeladi, naq hayotning o‘ziday... (I, 508).	
Keyin uzoq yillar Bo‘ston xotirasiga hech o‘chmas bo‘lib o‘rnashib qolgan dahshatli tush ko‘rib yurdi. U muz jar sari arqonda tushib boryapti. Yaxmalak devorlarni qo‘lidagi fonar bilan yoritadi. Uning yana boshqa fonari ham bor. Birovi qo‘lidan tushib ketsa, ikkinchisini ishlatadi. Birdan nazarida ikkinchi fonarini yo‘qotib qo‘ydi. Qaerga g‘oyib bo‘ldi, bilmaydi. Bundan yuragi yomon siqildi. Qo‘rqdi, xavotirlandi. Baqirgisi keladi. Lekin vahimali qorong‘u muzlik qa’riga tushgancha tushib boraverdi. Nihoyat, chiroq yorug‘ida muzga toshday yopishib yotgan Ernazarni ko‘rdi: Ernazar (aslida ham shunday edi) mukkayib o‘tiribdi, po‘stini boshi tepasiga ko‘tarilib qolgan, yuzi qonga bo‘yalgan, lablarini mahkam qimtigan, ko‘zlari yumuq. ‘‘Ernazar! – deb chaqirdi Bo‘ston. – Men keldim! Quloq sol, men senga ikkinchi fonarni qoldirib ketmoqchi edim – bu yer juda qo‘rqinchli va qorong‘u ekan – lekin uni yo‘qotib qo‘ydim. Tushundingmi, Ernazar, yo‘qotdim. Lekin baribir senga o‘zimning fonarimni beraman. Ma, ol, bu mening fonarim. Ol, Ernazar, iltimos qilaman!’’ (I, 515).	Ernazarni qutqarolmagani uchun o‘zini doim ayblagan Bo‘ston doim uni tushlarida ko‘radi. Unga o‘z fonarini bermoqchi bo‘lishi orqali o‘zining hayoti ham zulmatga chulg‘anishiga ishora qilinadi. Kenjashni o‘z qo‘li bilan otib qo‘yishi, umuman, Bo‘stonning halokati aynan tushi orqali ayonlashadi.
Uning tushiga yana kitlar kirdi. U okeanda uzoq vaqtgacha kitlar orasida suzib yurdi. U kitlarning to‘lqinlar yuvib turgan ko‘zlariga boqar va ularning fikrini o‘qir edi. Uning o‘zi ham kit edi. Va kitlar samolyotdan ko‘ringan holatni takrorlaganday o‘tkir burchak hosil qilib suzishar edi. Ularni qandaydir g‘ayritabiiy kuch ufq sari, go‘yo o‘sha tomonda nimadir kutayotganday olg‘a yetaklab borar edi. ‘‘Qaranglar, qaranglar, kitlar, mening birodarlarim! Osmonga ikkita quyosh chiqibdi! Birdaniga ikkita quyosh-a! Eshityapsanlarmi? Bu yaxshilik alomati emas! Okean qaynab ketadi va biz hammamiz nobud bo‘lamiz! Ikkita quyosh – dahshat!..’’ (III, 61).	So‘zlash baxtidan mahrum kitlar naqadar azob chekayotganini shu yo‘l bilan izhor etadi. Yovuzliklarga kitlar bardosh bera olmaydi va o‘zini o‘zi halok qiladi. Yozuvchi ikkinchi quyosh sifatida Filofeyni nazarda tutgan.

Bu tushni ko‘rganiga ko‘p vaqt o‘tgani yo‘q – tushida hammayoq golf maydonlari emish, kechasi oy nur sochib turganmish, hamma shodu xurram va erkin his qilarmish o‘zini, lekin ko‘ngilsizlik ro‘y bergan emish: chuqurchaga tushgan koptokni tayoq bilan urib chiqarib bo‘lmas emish – koptok o‘rnidan qo‘zg‘almasmish, Bork qanchalik harakat qilmasin, koptok qimirlamay turavergan emish. Shu on qayoqdandir tepa tarafdan kafedrada birga ishlagan hamkasabasi marhum professor Maks Frayd kelib qolganmish. U Borkka qarab: ‘‘Oyga uchib ketaylik, u yerda xuddi shunday maydonlar bor, golf o‘ynaymiz’’, – der emish. Bork Maksning so‘zlariga ishonib, uning orqasidan ergashib, dalalar ustidan uchib ketarmish. Xotini Jessi bo‘lsa, ortidan chopib, ‘‘orqaga qayt’’, deb chaqirarmish. Va nima uchundir u yig‘larmish. Bu tushning ta’biri nima ekan? (III, 191).	Borkning fikrlari olomon tomonidan batamom rad etilishi, natijada halok bo‘lishiga yozuvchi tush motivi orqali ishora qilgan. Ch.Aytmatov qahramonlari tushida oyda, dengizda, o‘rmonda o‘zlarini g‘ayritabiiy holda (uchish, suzish) ko‘rishadi. Bu qahramon ichki makonida ro‘y berayotgan holatlarni yanada teranroq anglash imkonini beradi.
Men tez-tez, doimo bir xil tush ko‘raman: qalin qor uyumlari uzra qadam tashlayman va onam izlarini axtara ketaman, bu izlar esa qorong‘i o‘rmonga olib boradi: meni vahima bosadi, qor ko‘mib tashlaydi, sovqotaman: ‘‘Ona! Onajon!’’ – deya faryod solaman-da, uyg‘onib ketaman (III, 281).	Tushda Andrey Kril-sovning tadqiqotlari natijasi qorong‘i o‘rmon majoziy obrazi orqali dalillangan.
Ertalabga yaqin u tush ko‘rdi, qo‘lida mobil telefon emish, lekin undan qo‘ng‘iroq qilish o‘rniga, qayoqqadir o‘qtalib mo‘ljal olarmish, o‘q ovozi eshitilmasmish... shunda qo‘ng‘iroq jiringladi (II, 49).	Arsen Ertosh Kurchalni o‘ldirish uchun qurol topish rejasi miyasini chunon band qilganidan bu holat tushiga kiradi.
– Xudo yetkazsin! Bunga ishonching komilmi? – Negadir kutyapman. Tushimda ko‘rdim... Bo‘lmasa monastirda oyog‘im qolib ketgay to abad (II, 225).	Elesning tushida Arsendan farzand kutayotgani ayon bo‘ladi.
Qoraquyun tushida sirli va fusunkor oqshom yog‘dusiga chulg‘angan hamda shuvoqning o‘tkir bo‘yiga to‘yingan adoqsiz kenglik bag‘rida, do‘ppidek do‘mpaygan tepalik ustida yengil va orombaxsh epkinga yuzlanib yotgan holda ko‘rdi o‘zini (V, 44).	Bandilikdagi Erman-ning iztiroblari va g‘ul iti Qoraquyun tushidagi ozodlik epkini yondosh xronotop asosida tasvirlangan.
Bu paytda Omontoy tush ko‘rayotgan, tushida u suygan yori bilan archazorda kuylashib va quvlashib yurardi. Qizi tushmagur qiqirlab va dikonglab dermishki, ‘‘qo‘shiq aytsangiz, tegaman sizga’’. Umrida qushiq aytib ko‘rmagan Omontoy binoyidek qo‘shiq	Itolmas yigitlari bilan tulpori uchun o‘ch olish maqsadida kelgan-da, Omonning g‘aflat uyqusidagi tushi orqali Ermanning xavfga yolg‘iz

aytarmish, ammo aytgan qo‘shig‘i nuqul xurrak bo‘lib jaranglarmish (V, 213).	ro‘para bo‘lishi tasvirlangan.
U o‘zini ko‘kish hovur qo‘ynida his etarkan, bir lahzaga tush ko‘radi. Va har gal tushida Bo‘zbo‘rining o‘ziga miltiq o‘qtalib turganini ko‘radi. Bu ne sir-sinoat? (IV, 35).	Yozuvchi metamorfoza hodisasini qo‘llab, bo‘ri qiyofasida qaynotasi O‘sarqulni ifodalaydi.
Tushida, buni chandon istasa-da, Oybarchinni emas, negadir, odatdagidek, Bo‘zbo‘rini ko‘rardi. Sho‘rlik Bo‘zbo‘rining joni juda qiynoqda emish Jufti Qoramanglay pushti yomonligidan nolib, u sho‘rlikning hech holi-joniga qo‘ymas emish. Bo‘zbo‘ri nima qilarini bilmay, maysaga yonboshlagancha, nuqul o‘y surarmish. Bo‘rining xuddi odamday yonboshlab yotishi Eshqul polvonga g‘alati va kulguli ko‘rinarmish (IV, 47).	Ayoli Oybarchin Eshqul polvonga ikkitagina farzand tug‘ib berol-ganidan doim zorlani-shi tushida Bo‘zbo‘ri va Qoramanglay tasvirida namoyon bo‘ladi.
Tushida bu safar Bo‘zbo‘ri bilan dashtda choylashib o‘tirganmish. Bo‘zbo‘ri xuddi odamga o‘xshab rosmana chordona qurib olganmish. Oshna, sen dashtni tark etishing bilan bu kenglikdan fayz ketdi, dermish u choydan mayda ho‘plab va so‘ng chuqur-chuqur xo‘rsinib, yana so‘zlashda davom etarmish, qanjig‘im Qoramanglayni haydadim, hamsoyam G‘ajirko‘zga ko‘z suzgani uchun bolalariga qo‘shib haydadim, endi manovu dashtga va anovu tog‘u toshlarga o‘t qo‘yib yuborsammikan deb turibman, tog‘u toshlar yonarmikan, a? (IV, 64).	Tog‘asi Haydarning tuhmati tufayli kelini Oybarchinning dashtdan ketib qolishi va To‘lanboyning iztirob-lari shu taxlit Eshqul polvonning tushida bo‘y ko‘rsatadi.
To‘lanboy, odatdagidek, tong bo‘zarmay uyg‘onarkan, ko‘rgan tushini o‘ylab bir zum cho‘zilib yotdi. Tavba, shunaqayam bema’ni tush bo‘ladimi? Tog‘asi Bo‘zbo‘rining qiziga uylanarmish! U ko‘rgan tushidan bor-yo‘q eslab qolgani shu edi (IV, 150).	Ota va o‘g‘ilning bir xil tushi orqali Haydarning bo‘rilarga yem bo‘lishini kitobxon anglaydi.
Tushida o‘zi jarga itarib yuborgan o‘sha oshiq yigit ona bo‘ri qiyofasida unga hamla qilib, nuqul bo‘g‘ziga chang solmoqqa urinardi. Kimdir tushida bo‘rini ko‘rish yaxshilik alomati ekanligini aytganday bo‘luvdi. Biroq ko‘rgan tushi hech yaxshilikdan darak bermasdi (IV, 176).	Ayolini sevgan oshiq yigitni otib tashlagan O‘sarqulni O‘rtaqir hududidagi ona bo‘ri bolalariga chang solgani uchun halok qiladi. Yozuvchi tush orqali shunga ishora qilgan.
Tushida Bo‘zbo‘ri Siynatepada cho‘nqayib o‘tirib olgancha nuqul, ketaman, dermish. Eshqul polvon esa dashtni uningsiz tasavvur etolmaganidan, ketma, deb yalinarmish. Bunga javoban Bo‘zbo‘ri o‘ksib dermish: ‘‘Uzoqdagi tog‘lar vodiysiga boshimni olib ketmasam, dashtda mening o‘sib-unishim qiyin! Bunaqada bittayam tomir surarim qolmaydi!’’ (IV, 192).	Odamlarning bo‘rilarni ayovsiz qirishi natija-sida ularning darbadar-lik holati ‘‘Qiyomat’’da ham ifodalangan.

Xulosa. Xullas, xronotopning yettita shakli, ya'ni real, ijtimoiy, milliy, folklor, fantastik, tush, xotiralar xronotopi asarning xronotop tuzilmasida syujetni tashkil etish, xarakter yaratish, hikoya qilish vazifalarini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar xronotopning bir shakli (masalan, fantastik yoki milliy xronotop) asosida yozilishi mumkin. Ammo xronotopning turli shakllarining sintezi nisbatan ko‘proq kuzatiladi. Ular bir xil darajada muhim bo‘lishi yoki xronotopning bir shakli ustuvorlik kasb etishi hamda voqealar tasvirida asosiy o‘rin egallashi mumkin. Bundan tashqari, muallif badiiy-estetik g‘oyasining mohiyatini ochishda xronotop shakllarining uyg‘unlashuvi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimiy qatlamlari. — URL: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdurashid-abdurahmonov-beshinchi-qism.html
2. Begmuratova G. *Mustaqillik davri qoraqalpoq romanlarida folklorizmlar*: Filol.fan. fals. d-ri. ...diss. avtoref. — Nukus, 2019. — 53 b.
3. Ibrohimova R. *Fantastikada an'ana va adabiy ta'sir masalasi*. — URL: https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/rano-ibrohimova-fantastikada-anana-va-adabiy-tasir-masalasi/
4. Meliboev A. *Yolg'iz yashab bo'lmaydi*. — T.: Sharq, 2007. — 144 b.
5. Meliboev A. *Rizq daraxti*. — URL: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/isajon-sulton-boqiy-darbadar-ahmadjon-meliboyev-rizq-daraxti.html
6. Rahimjon Rahmat. *''Munojot''dan ''Boqiy darbadar''gacha''*. Isajon Sulton. Boqiy darbadar: roman. — T.: O‘zbekiston, 2011. — 280 b.
7. Rashidov A. *Chingiz Aytmatov olami*. — T.: ‘‘O'qituvchi'' nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. — 256 b.
8. Salomov G'. *Ranj va ganj*. — B. 548-559. Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun; Qiyomat: |Romanlar|/(Rus tilidan A. Rashidov, I. G'afurov tarj.). — T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. — 560 b.
9. Temirbolat A.B. *Kategorii xronotopa i temporalnogo ritma v literature*. Monografiya. — Kazaxstan: Almati, 2009. — 499 s.
10. Turaev B.O. *Chingiz Aytmatov i mirovie sivilizatsii* // Chingiz Aytmatov. Lichnost. Epoxa: Sbornik materialov mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. — Moskva, 10–11 dekabrya 2018. — 149 s.
11. Ulug'ov A. *Afsonalarning badiiy talqini*// https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/abdulla-ulugov-afsonalarning-badiiy-talqini.html
12. Fayzullaev O. *Yozuvchining ilmiy fantaziyasi*. — URL: https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/omonulla-fayzullaev-yozuvchining-ilmiy-fantaziasi/
13. Yakubov I. *Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi*: Filol. fan. d-ri ...dis.avtoref. — Toshkent, 2018. — 71 b.
14. https://dic.academic.ru/dic.nsf/dic_wingwords/1808/

Foydalanilgan badiiy asarlar ro'yxati

I. Aytmatov Ch. *Asrga tatigulik kun; Qiyomat*. Romanlar. Rus tilidan A. Rashidov, I. G'afurov tarj. — T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. — 560 b.
II. Aytmatov Ch. *Qulayotgan tog'lar (Mangu qayliq)*. — T.: Ozbekiston NMIU, 2011. — 536 b.
III. Aytmatov Ch. *Kassandra tamg'asi*. Roman. Rus tilidan Suyun Qoraev tarjimasi. — T.: Adabiyot uchqunlari, 2009. — 285 b.
IV. Norqobilov N. *Dashtu dalalarda*. Roman. — T.: O‘zbekiston, 2009. — 224 b.
V. Norqobilov N. *Qoraquyun*. Roman. — T.: O‘zbekiston NMIU, 2016. — 216 b.
VI. Sulton I. *Boqiy darbadar*. Roman. — T.: O‘zbekiston, 2011. — 282 b.
VII. Hamdam U. *Isyon va itoat*. Roman. — T.: Yangi asr avlodi, 2003. — 140 b.
VIII. Hoshimov O'. *Ikki eshik orasi*. Roman. — T.: Yangi asr avlodi, 2016. — 752 b.

References

1. Abdurahmonov A. *Turkiy adabiyotning qadimiy qatlamlari* (Ancient layers of Turkish literature), available at:

https://khdavron.uz/kutubxona/uzbek/abdurashid–abdurahmonov–beshinchi–qism.html
2. Begmuratova G. *Mustaqillik davri qoraqalpoq romanlarida folklorizmlar* (Folklore in Karakalpak novels of the independence period), Extended abstract of Doctor's thesis, Nukus, 2019, 53 p.
3. Ibrohimova R. *Fantastikada an'ana va adabiy ta'sir masalasi* (The issue of tradition and literary influence in science fiction), available at: https://ziyouz.uz/ilm–va–fan/adabiyot/rano–ibrohimova–fantastic–anana–va–adabiy–tasir–masalasi/
4. Meliboev A. *Yolg'iz yashab bo'lmaydi* (You can't live alone), Tashkent: Sharq, 2007, 144 p.
5. Meliboev A. *Rizq daraxti (The food tree)*, available at: https://khdavron.uz/kutubxona/uzbek/isajon–sulton–boqiy–darbadar–ahmadjon–meliboyev–rizq–daraxti.html
6. Rahimjon Rahmat. *''Munojot''dan ''Boqiy darbadar''gacha''* (From ''Munojot'' to ''Boqiy darbadar''), Tashkent: O'zbekiston, 2011, 280 p.
7. Rashidov A. *Chingiz Aytmatov olami (The world of Chingiz Aitmatov)*. Tashkent: ''O'qituvchi'' nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011, 256 p.
8. Salomov G'. *Ranj va ganj* (Hardship and treasure), pp. 548–559. Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun; Qiyomat: |Romanlar|/(Rus tilidan A. Rashidov, I. G'afurov tarj.), Tashkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989, 560 p.
9. Temirbolat A.B. *Kategorii xronotopa i temporalnogo ritma v literature* (Categories of chronotopa and temporal rhythm in literature), Kazakhstan: Almaty, 2009, 499 p.
10.Turaev B.O. Proceedings of the International Conference "*Chingiz Aytmatov. Lichnost. Epoxa"* ("Chingiz Aitmatov. Personality. Epoch"), Moscow, December, 10–11, 2018, 149 p.
11.Ulugov A. *Afsonalarning badiiy talqini (Literary interpretation of legends)*, available at: https://kh–davron.uz/library/multimedia/abdulla–ulugov
12.Fayzullaev O. *Yozuvchining ilmiy fantaziyasi (Writer's scientific fantasy)*, available at: https://ziyouz.uz/ilm–va–fan/adabiyot/omonulla–fayzullaev–writer's–science–fantasy/
13.Yakubov I. *Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi* (Poetics of Uzbek novels of the independence period), Extended abstract of candidate's thesis, Tashkent , 2018. 71 p.
14. https://dic.academic.ru/dic.nsf/dic_wingwords/1808/

List of used literary books

I. Aytmatov Ch. *Asrga tatigulik kun; Qiyomat* (The Place of the Skull, The Day Lasts More Than a Hundred Years), Tashkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989, 560 p.
II. Aytmatov Ch. *Qulayotgan tog'lar (Mangu qayliq)*. (*When the Mountains Fall (Eternal Fiancée)*, Tashkent: Ozbekiston NMIU, 2011, 536 p.
III. Aytmatov Ch. *Kassandra tamg'asi* (Cassandra's Brand (Of the heresies of the XX century), Tashkent: Adabiyot uchqunlari, 2009, 285 p.
IV. Norqobilov N. *Dashtu dalalarda* (*In the steppe fields)*, Tashkent: O'zbekiston, 2009, 224 p.
V. Norqobilov N. *Qoraquyun* (*Black creature)*, Tashkent: O'zbekiston NMIU, 2016, 216 p.
VI. Sulton I. *Boqiy darbadar* (*Eternal Wanderer)*, Tashkent: O'zbekiston, 2011, 282 p.
VII. Hamdam U. *Isyon va itoat* (*Rebellion and Obedience*), Tashkent: Yangi asr avlodi, 2003, 140 p.
VIII. Hoshimov O'. *Ikki eshik orasi* (*Between two doors*). Roman. T.: Yangi asr avlodi, 2016, 752 p.